

ISSN 2181-5291

PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC JOURNAL

№ 3, 2023

www.buxdu.uz



<https://buxdu.uz>

Elov Ziyodullo Sattorovich
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'SMIRLAR ORASIDA SUITSIDGA MOYILLIKNI ANIQLASH VA KORREKSIYALSHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada o'smirlar orasida suitsidal xulq namoyon etilishining empirik asoslari tahlillar, turli psixologik qarashlar va o'tkazilgan tadqiqot xulosalari, shuningdek, o'z joniga qasd qilishga sabab bo'luvchi turli psixik faktorlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: suitsid, APA, deviant, xulq, kayfiyat, qasd, o'zini o'ldirish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ И КОРРЕКЦИИ СУИЦИДАЛЬНЫХ ТЕНДЕНЦИЙ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В статье освещены эмпирические основы суицидального поведения подростков, анализ, различные психологические взгляды и выводы исследований, а также различные психологические факторы, вызывающие суицид.

Ключевые слова: суицид, АПА, девиант, поведение, настроение, намерение, суицид.

PSYCHOLOGICAL BASIS OF DETERMINING AND CORRECTING SUICIDAL TENDENCIES AMONG ADOLESCENTS

Abstract. The empirical basis of suicidal behavior among adolescents, analyzes, various psychological views and research conclusions, as well as various psychological factors that cause suicide, are highlighted in the article.

Key words: suicide, APA, deviant, behavior, mood, intention.

Kirish. Jahon miqosda deviant xulq-atvorli shaxslarda suitsid namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik sabablarini aniqlash va uni baholash o'ta ilmiy ahamiyat kasb etib, psixologik bilimlar tizimini modernizatsiyalash, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalash, suitsidal xulq-atvorni bartaraf etishga qaratilgan yangi psixologik xizmat dasturlarini joriy etish, jamiyat hayotida yoshlar faolligini oshirish va ularning kasbiy kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilg'or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

2019-yil Amerika psixologlari assotsiatsiyasi (APA) ning navbatdagi ilmiy –amaliy konferensiyasida deviant xulq va yoshlar mavzusida diqqatga sazovor ma'ruza taqdim etilgan. Ma'ruzachi M.J.Sigalning fikricha, iqtisodiy rivojlanishi sust bo'lgan va ijtimoiy islohotlar keng qamrovli kuchga ega bo'lmagan jamiyatda, yoshlar bilan bog'liq huquqbuzarliklar ko'p sodir bo'ladi. Chunki bunday jamiyatlarda qonuniylik va noqonuniylik, axloqiylik va axloqsizlik o'rtasidagi chegaralar juda kichikdir².

Jamiyat o'zini biologik va ijtimoiy jihatdan yosh avlod orqali rivojlanadi. Ma'lumki, yoshlar mamlakat kelajagini ifodalaydi, shu bilan bog'liq holda ularning kayfiyati, xulq-atvori muayyan jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik, siyosiy muhitning o'ziga xos «o'lchovi»dir. I.S.Kon yoshlarga keng quyidagicha ta'rif beradi: «Yoshlar - bu yosh xususiyatlari, ijtimoiy mavqeyi va ma'lum ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining kombinatsiyasi asosida aniqlangan demografik guruhdir. Yoshlik hayot siklining ma'lum bir bosqichi sifatida biologik mukammallikdir, lekin uning o'ziga xos yosh chegaralari, ijtimoiy mavqeyi bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik xususiyatlar ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir [1].

Asosiy qism. Suitsid – o'z joniga qasd qilish bo'lib, lotin tilida «o'zini o'ldirish» ma'nosini anglatib, qasddan insonning o'z hayotiga nuqta qo'yishidir. Mazkur xulq, o'zini-o'zi yo'q qilishga qaratilgan ekstremal harakat turi deb ham ta'riflanadi. Mohiyatan, suitsid qasddan qilingan harakatlar, o'z hayotini yo'q qilish g'oyasiga asoslanadi. O'z joniga qasd qilishda namoyon bo'luvchi patologik fikrlar, niyatlar, his-tuyg'ular o'ziga xos psixologik yondashuvni talab etadi.

² American Psychological Association. (2019). Publication Manual of the American Psychological Association (6th ed.). Washington, DC: American Psychological Association.

Suitsid muammosi turli psixologik maktablarda turlicha qarashlar bilan o'rganilgan.

Bunda asosan deviant xulq-atvor va uni keltirib chiqaradigan motivatsiyalar to'g'risida bir qator ilmiy qarashlar mavjud.

Bixeviorizmning asoschisi Dj.Uotson psixologiyaning asosiy vazifasi xulqni tadqiq qilishdan iborat, deb tushuntirishga harakat qiladi. U psixik holatlarni xulqning ifodasi sifatida qarab, inson xulqini ichki va tashqi shakllarga ajratadi va ular stimulg javob sifatida bevosita o'zaro bog'langanligini asoslashga urinadi.

Bixevioristlarning fikricha, psixologiyaning predmeti psixika emas, balki stimullarga reaksiyalar qaytaruvchi xulqdir. Hozirgi zamon bixevioristlari stimolni tashqi qo'zg'atuvchi sifatida qaraydilar va tana a'zosining ichki quvvatini faollashtiradi deb tushunadilar [2].

Bixeviorizm nazariyasiga ko'ra, tajovuzkor xulq tahlil qilishda quyidagi uchta jihatni hisobga olish lozim:

1. Mazkur harakatlarni o'zlashtirish usullari;
2. Uni yuzaga keltiruvchi omillar;
3. Ular mustahkamlanadigan sharoitlar.

E.Daffi o'zining «xulq motivatsiyasini faollashtirish» nazariyasida motivatsiya muammosini kengroq tadqiq qilishga uringan. Ushbu nazariyaga ko'ra motiv xulq yo'nalganligi (xulqning faolligi) orqali ifodalanishi mumkin. Xulq intensivligi va uning aktivatsiyasi darajasini o'rganishda bosh miya po'sti (psixika) bilan sklet muskullari funksiyalari o'rtasida korrelyatsion munosabatlar indikatorlar sifatida qabul qilinadi. Uning fikricha, stimol bilan reaksiya kabi bilish bilan faollashish jarayonlari ham o'zaro o'rin almashib turadi.

E.Daffi o'z joniga qasd qilishni oqlash mumkin bo'lgan quyidagi oltita sababni tan oladi:

- yashash uchun mablag'larning yetishmasligi bilan;
- kuchli og'riq bilan kechadigan kasallik;
- umidsiz holat (asir, tahdid, qiynoqlar);
- chuqur qarilik;
- nopok yoki kamsituvchi harakatga majburlash;
- umumiy baxtsizlik. [3]

A.Bandura o'zining «Motivatsiya – sistematik reinterpretatsiya» nomli tadqiqotida xulq-atvorning namoyon bo'lishini odatda retikulyar formatsiyadan kelayotgan faollik darajasiga, miyaga boruvchi qonning fiziologik tarkibi ta'sir qilishiga bog'laydi. U motivatsiyani fiziologik qonuniyatlarga ko'ra tushuntirib berish bilan birga unga ta'sir etuvchi sub'ektiv omillarga (ichki stimullar va xulqning hayotdan o'zlashtirgan me'yorlarga) ham bog'liqligini ta'kidlab o'tadi [4].

D.Berlayn motivlar mohiyatini ochishda ehtiyojning o'rniga bevosita murojaat qiladi va uni bir necha xil ma'noda talqin etadi. Birinchidan, ehtiyoj – bu faollik va faoliyat darajasini belgilovchi shart-sharoit (energetik manba). Ikkinchidan, ehtiyoj - bu insonning maqsadiga ko'ra aniq javoblarga erishishga yordam beruvchi ichki holat yoki ularning tanlovchiligini (selektivligini) aniqlovchi turtki. Uchinchidan ehtiyoj – bu inson uchun rag'bat yoki mukofot olishga aloqador sharoit mazmuni. Muallifning fikricha, ehtiyoj – organizm uchun zarur bo'lgan javoblarni aniqlashga xizmat qiladi [5].

S.L.Rubinshteyn har qanday shaxsning xulq-atvorini psixologik jihatdan tushuntirishda qo'zg'atuvchilar (qo'zg'ovchilar)ni turli bosqichlarda o'zaro murakkab bog'liqlikdagi kechish holatini olib qarash lozim, deb ta'kidlaydi [6].

Psixoanaliz asoschisi, psixiatr Z.Freydning suitsid borasidagi tasavvurlari odamdagi mavjud ikkita asosiy mayl konsepsiyasiga asoslanadi: Eros – hayot instinkti va tanatos – o'lim instinkti. Inson hayoti ular o'rtasidagi jang maydoni hisoblanadi. Inson nafaqat yashashni, suyuqli bo'lishni va o'zining davomini farzandlarida ko'rishni istaydi – shunday davrlar yoki ruxiy holatlar bo'ladiki, bunda o'lim istalgan bo'ladi. Yosh o'tishi bilan eros o'lib boradi, tanatos kuchli, qatiyatli bo'lib boradi va odamni o'limga olib borib, o'zini to'liq ro'yobga chiqaradi. Freydg muvofiq suitsid va o'zini o'ldirish tanatosning buzg'unchi ta'sirining namoyon bo'lishidir, ya'ni agressiyaning natijasidir [7].

Ayni paytda, suitsidal xulq motivatsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini belgilash va ularning har birini chuqur o'rganish uchun tegishli usullarni tanlash va saralashga to'g'ri keldi. Unga ko'ra, ko'p yillik tajribalarimiz va tegishli ilmiy adabiyotlar ustida olib borilgan tahlillarimizga asoslanib, suitsidal xulqning psixologik xususiyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan maxsus metodikalar va o'smirlar orasida suitsidal xulqqa moyillikning namoyon etilishini tadqiq qilish bilan bog'liq tadqiqot uslubi belgilandi.

«Suitsidial xulq-atvorni aniqlash so‘rovnomasi» orqali olingan dastlabki statistik tahlillar
(n=620)

Omillar	Deviant xulq-atvorli o‘smirlar	O‘smirlar	U-Manna-Uitni mezon	p
	M (o‘rtacha qiymat)			
Havotirlanish	13,6	7,2	1094	0,005
Umidsizlik	10,9	6,7	726	0,005
Tajovuzkorlik	9,9	8,9	832	0,018
Dezadaptatsiya	11,9	7,4	892	0,005
Suitsidial xulq-atvor	46,3	30,2	1014	0,005

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlar orasida **suitsidial** holatlarga moyillik aniqlanmadi, ammo ba’zi omillarga ko‘ra, natijalar biroz yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Jadvaldagi ma’lumotlarga ko‘ra, 1-guruh respondentlarida yuqori darajadagi havotirlanish aniqlandi (*12-16 ball yuqori darajadagi xavotirlanishni anglatadi*). Havotirlanish darajasini yuqori bo‘lishi asosan ekstremal vaziyatlarda o‘zini namoyon qilish bilan belgilanadi. Bu holat o‘smirlardagi oddiy holatlarda ham tez-tez kuchli tashvishlarni boshdan kechirish tendensiyasi bilan tavsiflanadi. Havotirlanish omili yuqori bo‘lgan talabalar muammoli vaziyatlarga, qiyinchiliklarga haddan tashqari kuchli munosabat bildirishadi. Bundan tashqari mazkur holatning yuqori bo‘lishi ulardagi o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatsizliklarni, aqliy jihatdan tez toliqishlarga olib keladi. Havotirlanish ruhiy holatlarni belgilaydi, hissiy sohaga, xulq-atvoriga va kasbiy shakllanish jarayoniga ta’sir qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, havotirlanish o‘z joniga qasd qilish xatti-harakati uchun xavf omillaridan biri bo‘lishi mumkin. 2-guruh o‘smirlarida esa xavotirning past darajasini ko‘rishimiz mumkin. Deviant xulq-atvorli o‘smirlar hamda o‘smirlar orasida mazkur omil bo‘yicha ishonchli farq kuzatildi ($U=1094$, $p\leq 0,005$).

«Umidsizlik» omilida ham 2 ta guruh sinaluvchilari orasida ishonchli statistik farqlar kuzatildi ($U=726$, $p\leq 0,005$). Deviant xulq-atvorli o‘smirlarda mazkur omil bo‘yicha yuqori natijani ko‘rishimiz mumkin (10-15 ball yuqori darajadagi umidsizlikni anglatadi). Ma’lumotlarga ko‘ra emotsional tushkunlik ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan o‘smirlarda o‘z ehtiyojlarini qondirish darajasi past darajada bo‘ladi. Umidsizlik shaxslarda butun e’tiborini muammoga va uni hal qilishga qaratilishini ta’minlaydi. Biroq, yuqori darajadagi hissiy zo‘riqishning kuchayishiga yordam beradi va neyropsixik taranglikni keltirib chiqaradi. Ushbu xususiyatning rivojlanishi o‘smirlarning individual xususiyatlari, o‘zini anglashi, o‘zini o‘zi qadrlashi va boshqalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Deviant xulq-atvoriga ega bo‘lmagan o‘smirlarda esa mazkur omil nisbatan pastroq darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

«Tajovuzkorlik» shkalasi bo‘yicha har ikkala guruhda sezilarli farqlar kuzatilmadi. Har ikkala guruhda ham tajavuzkorlik nisbatan past darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin ($U=832$, $p\leq 0,018$).

«Dezadaptatsiya» omilida ham 2 ta guruh orasida statistik farq kuzatildi ($U=892$, $p\leq 0,005$).

Bu shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarlar uchun yangi vaziyatlarni idrok etishdagi qiyinchiliklar, har bir holatlarga kuchli emotsional munosabatda bo‘lish, xulq-atvordagi muammolar, mavjud muammolarni bartaraf etishdagi qaror qabul qilish darajasining passivligini bildiradi. «Dezadaptatsiya» omiliga teskari bo‘lgan adaptatsiya omili yuqori bo‘lishi, o‘smirlarda turli vaziyatlarda tez moslasha olish, emotsional holatlarini nazoart qilish va qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklarni yenga olish xususiyatlarini mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Suitsidial xulq-atvor omilida ham 2 ta guruh orasida statistik farq kuzatildi ($U=1014$, $p\leq 0,005$) (1-jadval).

Shaxsning suitsidial xulq-atvoriga bo‘lgan potensial va haqiqiy tendensiyalarini o‘z vaqtida aniqlash va to‘g‘ri baholash uning birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi samaradorligining asosiy sharti sanaladi. Eng muhimi, suitsidial xulq-atvor mexanizmining bir qismi bo‘lgan shaxsiy xususiyatlarni aniqlashtirish hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘smirlardagi nafaqat suitsidial niyatlarini amalga oshirishga hissa qo‘shadigan motivatsion va semantik komponentlarni o‘rganish, balki oldini olish ham muhimdir.

“Suitsidal xavf so‘rovnomasi” T.N. Razuvayeva modifikatsiyasi bo‘yicha yigitlar va qizlardan olingan natijalar tahlili (n=620)

Omillar	Qiz bolalar	O‘gil bolalar	p
Namoyishkoronalik	20,0 ± 3,0	22,2 ± 1,9	0,002
Affektivlik	50,3 ± 2,0	35,8 ± 3,2	0,000
Noyoblik	24,1 ± 2,9	16,1 ± 2,2	0,005
Layoqatsizlik	30,8 ± 2,9	24,6 ± 2,6	0,005
Ijtimoiy pessimizm	50,8 ± 2,5	41,3 ± 2,3	0,005
Madaniy to‘siqlarni buzish	30,7 ± 2,3	31,7 ± 2,6	0,005
Maksimalizm	41,3 ± 4,3	39,6 ± 3,3	0,002
Vaqtinchalik perspektiva	17,5 ± 2,1	18,5 ± 1,6	0,005
Antisuitsidal faktor	88,1 ± 2,7	84,2 ± 3,0	0,005

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01,*-p<0,001.**

Mazkur metodika bo‘yicha olingan natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, deyarli barcha omillarda yigitlar va qizlarda statistik farqlar kuzatildi. Eng yuqori farqlar «namoyishkoronalik» (ishonchlilik darajasi ($p > 0,002$)), «affektivlik» (ishonchlilik darajasi ($p > 0,000$)) va «maksimalizm» (ishonchlilik darajasi ($p > 0,002$)) da aniqlandi. Masalan, qizlarda «namoyishkoronalik» omili yuqori ekanligi ulardagi salbiy emotsional holatlarda atrof-muhitni e‘tiborini o‘ziga tortishda bo‘lgan harakatlarida, boshqalar ular uchun qayg‘urishini istashlarida ko‘rinadi. Yigitlarda esa mazkur omillar teskarisiga, ya‘ni o‘zi bilan bo‘layotgan voqealarni atrof muhitdan nisbatan yashirishga intilar ekanlar.

«Affektivlik» omili esa qizlarga nisbatan yigitlarda ustun ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa ularda vaziyatlarni adekvat baholashda ko‘pincha intellektal sohaga emas, balki emotsional sohaga e‘tibor qaratishida namoyon bo‘lar ekan. Qizlarda esa mazkur omil nisbatan pastroq ekanligi qayd etildi.

«Maksimalizm» omili qizlarda ustun ekanligi aniqlandi. Ya‘ni aynan o‘smirlik yoshida hos xususiyat bo‘lib, atrofda narsa va hodisalarga faqat o‘zining “qarichi” bilan munosabat bildirishidir. Ularning fikrlashi asosan ijtimoiy munosabatlarga zid bo‘ladi. Bu esa ularda turli ko‘rinishda, dezadaptatsiya, destruktivlik, turli zararli odatlarga berilish bilan tugashi mumkin.

Endi, mazkur metodikani deviant xulq-atvorli o‘smirlar va deviant xulq-atvorga ega bo‘lmagan o‘smirlar kesimida tahlil qilamiz. Biz dissertatsiyamizning ikkinchi bobida, ya‘ni, tadqiqot ob‘ekti haqidagi bo‘limida deviant xulq-atvorli o‘smirlarni viloyat, tuman kesimida aniqlab olgan edik. Maqsadimiz har ikkala respondentlar guruhidagi suitsidga moyillik darajasini aniqlashdan iborat (2-jadval).

Suitsidal xavf so‘rovnomasi (T.N. Razuvayeva modifikatsiyasi) metodikasi (n=620)

Omillar	Deviant xulq-atvorli o‘smirlar	O‘smirlar	U-Manna-Uitni mezoni	p
	M (o‘rtacha qiymat)			
Namoyishkoronalik	3,1	3,2	867	0,584
Affektivlik	3,6	2,7	356	0,005
Noyoblik	3,2	3,4	962	0,117
Layoqatsizlik	4,7	3,2	426	0,005
Ijtimoiy pessimizm	3,9	2,6	384	0,005
Madaniy to‘siqlarni buzish	1,6	1,9	1014,2	0,047
Maksimalizm	2,8	2,9	1123,2	0,352
Vaqtinchalik perspektiva	3,4	2,4	364	0,005
Antisuitsidal faktor	3,2	3,9	983	0,025

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01,*-p<0,001.**

Olingan natijalar tahliliga o'tadigan bo'lsak, har ikkala respondentlar guruhida ma'lum bir farqlar kuzatildi. Jumladan, «affektivlik» ($U=356, p \leq 0,05$), «layoqatsizlik» ($U=426, p \leq 0,05$), «ijtimoiy pessimizm» ($U=384, p \leq 0,05$) hamda «vaqtinchalik perspektiva» ($U=364, p \leq 0,05$) omillarida yuqori farqlar kuzatildi.

«Affektivlik» omili deviant xulq-avorli o'smirlar guruhida o'rtacha qiymat ($Me=3,6$) ni, deviant xulq-atvoriga ega bo'lmagan o'smirlarda esa ($Me=2,7$) ni ko'rsatdi. Mazkur natijalar shuni anglatadiki, ularda stressli vaziyatga haddan tashqari hissiy munosabat bildirish tendensiyasi hamda kuchli emotsional holatlarda aqlning affektiv blokadasini o'zini namoyon qilgan ekan.

«Layoqatsizlik» omili ham deviant xulq-avorli o'smirlar guruhida ($Me=4,7$) ni ko'rsatdi. Bu esa ularda hayotni anglashdagi muammolar, o'z rejalarini amalga oshirishda ishonchsizlik va o'ziga o'zi qarama-qarshi munosabatda bo'lishini anglatadi. Ular o'zlarini qobiliyatsiz, mazkur dunyodan uzilgan hamda jamiyatga butunlay foydasiz deb bilishadi.

«Ijtimoiy pessimizm» ($Me=3,9$) bo'yicha ham deviant xulq-avorli o'smirlarda natijalar salbiy ekanligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur shaxslar ularni o'rab turgan dunyoni salbiy jihatdan tasavur qilishadi. Ular boshqalarni salbiy fazilatlariga ega, dunyo tashvish va xavf-xatarlarga to'la, dushmanlik deb baholashadi, ularni fikrlari boshqalar bilan uyg'un insoniy munosabatlar g'oyalriga mos kelmaydi.

«Vaqtinchalik perspektiva» ($Me=3,4$) omilida ham deviant xulq-avorli o'smirlarda 3 baldan yuqori natija qayd etildi. Bu esa mazkur guruhda kelajak hayotga bo'lgan ishonchsizlik, rejalashtirish qobiliyatining pastligi bilan belgilanadi. Bu esa ularning ayni holatidagi ruhiy zo'riqishlar, havotirlanish darajasining yuqoriligidan ham kelib chiqishi mumkin. Yuqoridagi ma'lumotlardan aytish mumkinki, deviant xulq-atvorli o'smirlarda mazkur omillar suitsidal holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, mazkur guruhda «antisuitsidal faktor» ($Me=3,2$) ham majud bo'lib, suitsidal holatlarga ta'sir etuvchi omillar ularda yuqori chiqqan bo'lsada, ulardagi ma'suliyat, burj hislari mazkur holatlarni pasaytirishi mumkin (3-jadval).

4-jadval.

Suitsidal xulq-atvorni aniqlash so'rovnomasi hamda suitsidal xavf so'rovnomasi orasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari (n=620)

Omillar	Xavotirlanish	Umidsizlik	Tajovuzkorlik	Dezadaptatsiya
Namoyishkoronalik	0,118	0,434**	0,147	0,142
Affektivlik	0,150	0,110	0,599**	0,118
Noyoblik	0,138	0,062	0,150	0,128
Layoqatsizlik	0,042	0,137	0,120	0,215
Ijtimoiy pessimizm	0,646**	0,172	0,225	0,466**
Madaniy to'siqlarni buzish	0,091	0,238	0,198	0,105
Maksimalizm	0,039	0,142	0,463**	0,254
Vaqtinchalik perspektiva	0,247	0,570**	0,230	0,122

Tadqiqotimiz davomida suitsidal xulq-atvorni aniqlash so'rovnomasi hamda suitsidal xavf so'rovnomasi orasidagi korrelyatsion bog'lanishlar aniqlandi. Bundan asosiy maqsad deviant xulq-atvorli o'smirlardagi suitsidal holatlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash edi. 4-jadvalda keltirilgan malumotlar tahliliga o'tadigan bo'lsak, bunda eng ko'p korrelyatsion bog'lanish «Ijtimoiy pessimizm» omilida kuzatildi. Agar o'smirlarda qanchalik atrofdagi olamga va o'zining ijtimoiy taraqqiyotiga salbiy qarashlar, dushmanlik ruhidagidek olamni qabul qilish va atrofdagilar bilan qoniqarsiz munosabatda bo'lish darajalari yuqori bo'lsa, ularda «xavotirlanish» ($r=0,646**$) va «dezadaptatsiya» ($r=0,466**$) omillari ham yuqori bo'lishi aniqlandi. «Namoyishkoronalik» omili «Umidsizlik» bilan o'zaro korrelyatsion bog'liqligi kuzatildi ($r=0,434**$). Bu shundan dalolat beradiki, agar o'smirlarda o'zining baxtsizligiga atrofdagilar diqqatini tortish xohishi, achinishga bo'lgan xarakterlarining ustun bo'lishi, ulardagi o'z istaklarni qondira olmaslik, g'azab, xavotir yoki disforiya ifodalari bilan hissiy darajaga ta'sir qilishi bilan belgilanadi. «Affektivlik» ($r=0,599**$) va «Maksimalizm» ($r=0,463**$) omillari «Tajovuzkorlik» bilan bog'liqlik kuzatildi (4-jadval).

Deviant xulq-atvorli o'smirlarda tajovuzkorlik sifatini yuqori bo'lishi, ularning ijtimoiy munosabatlarni baholashda intellektual nazorat ustidan emotsiyalarning balandligi hamda jamiyatdagi voqea-hodisalarga o'ta jiddiy munosabatda bo'lishi bilan izohlanadi. Demak, deviant xulq-atvorli o'smirlardagi suitsidial holatlarni aniqlash hamda uni oldini olishda mazkur holatga ta'sir etuvchi omillarni kompleks tarzda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotimizning navbatdagi metodikasi «Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash» (K.N.Tomas) bo'lib, mazkur metodikani qo'llashimizdan asosiy maqsad, deviant xulq-atvorli o'smirlarning shaxslararo munosabatlardagi o'rnini aniqlash edi. Chunki, shaxslararo munosabatlarda nizoli vaziyatlarning ko'payishi, ulardagi o'z ijtimoiy hayotidagi norozilik, o'z-o'zidan qoniqmaslik, o'ziga nisbatan past baho berishiga olib kelishi mumkin. Tomas testi asosida tadqiqotimiz davomida olingan o'ziga xos empirik tahlillar talqini deviant xulq-atvorli o'smirlardagi ziddiyatli holatlardan chiqish motivatsiyasi bilan bog'liq holatlarini ilmiy interpretatsiya qilishni taqozo etadi. Chunki, mazkur yo'nalishdagi tahlil asosida deviant xulq-atvorli o'smirlarning turli xil muammolar bilan bog'liq turli xil ziddiyatlardan chiqish motivatsiyasi ko'rsatkichlari haqida tegishli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin bo'ladi. Zero, ushbu test natijalarini tahlil qilishdan asosiy maqsad shuki, unda har bir o'smir uchun xarakterli bo'lgan motivatsiya ko'rsatkichlariga empirik jihatdan baho berish orqali ulardagi ziddiyatli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan o'ziga xos individual – psixologik yondashuvlar ko'lamini belgilab olishdir. Chunki har bir ko'rsatkich darajasi Tomas uslubi bo'yicha belgilangan 5ta mezonga dahldorlik imkoniyati bo'yicha tadqiq qilinadi [7].

5-jadval.

Tomas uslubi bo'yicha ziddiyatli holatdan chiqish motivatsiyasi ko'rsatkichlari (n=620)

Omillar	n ₁ 5-sinf	n ₂ 6-sinf	n ₃ 7-sinf	Ishonchlilik darajasi
Bahs-munozara	4,40	7,13	8,87	0,002
Hamkorlik	6,40	5,07	4,67	0,332
Kelishuv	7,67	5,70	5,30	0,231
O'zini chetga olish	5,33	6,33	6,23	0,006
Moslashuv	6,20	5,87	5,83	0,611

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01, ***-p<0,001.

Keltirilgan jadval interpretatsiyasiga asoslanib shuni ta'kidlash joizki, mazkur uslub yordamida olingan ma'lumotlar o'smirlar guruhlar doirasida turli xil ko'rinishlarda namoyon etilganligi bilan xarakterlidir. Zero, ziddiyatli holatdan chiqish motivatsiyasi ko'rsatkichlari har bir deviant xulq-atvorli o'smirlarda o'ziga xos aloxida dinamik xususiyatlarga ega ekanligini yaqqol kuzatish mumkin. Jumladan, 5-sinf o'smirlari orasida eng yuqori natija “Kelishuv” (7,67) omilida kuzatildi. Eng quyi natija esa “Bahs-munozara” (4,40) ekanligi qayd etildi. 5-sinf o'smirlari kichik maktab yoshidan eni chiqqanligi sababli, ularda asosan deviansiya muammosi faqatgina oilaviy muhitda kuzatilishi olib borilgan kuzatish, suhbat metodlarimiz orqali aniqlandi. Demak 5-sinf o'quvchilari suitsidial holatlarga moyillik darajasi nisbatan boshqa yoshga qaraganda pastroq darajada bo'lishi mumkin ekan.

Navbatdagi respondentlar guruhida esa o'rganilgan 6-sinf va 7-sinf guruhi bo'yicha Tomas shkalasidagi 5 ta mezon ichida birinchi o'ringa “bahs munozara” motivatsiyasi (1-mezon) to'g'ri kelgan bo'lsa 2-o'rinda esa o'zini chetga olish (4-mezon) motivatsiyasi yetakchilik vazifasini o'taydi. Bu holatning asosiy sabablariga yanada ko'proq aniqliklar kiritish maqsadida har bir respondent bilan individual suhbatlar olib borildi. Yig'ilgan ma'lumotlarning kontent-tahlil natijalariga murojaat qilindi. Umuman, barcha qo'shimcha usullarning natijalari ham o'rganildi. Demak, Tomas uslubi bo'yicha belgilangan 5 ta mezon ichida bahs-munozara va “o'zini chetga olish” motivatsiyalarining yetakchi o'rinlarni egallashi, 6-sinf va 7-sinflar orasida orasida ko'proq bahs-munozaraga moyillik, o'z “men”ligini ustun qo'yish har qanday holatda o'z fikri va g'oyalarni boshqalarnikiga nisbatan ustun qo'yishga intilish kabi harakatlarining yaqqol namoyon etilishi bilan ko'zga tashlanib turdi. Shunday bo'lsada, o'smirlarning sezilarli darajadagi bir qismi (n₂ 6,33, n₃ 6,23,) har qanday ziddiyatli holatlar paytida o'zlarini chetga olib turishni va munozaralarga aralashmaslikni, chetda turib voqelikni kuzatib borishni afzal bilganliklari bizni hayron qoldirdi (5-jadval).

Chunki, aynan biz o'rganayotgan yoshlar orasida bir-biriga teskari ikki xil motivatsiyaning nisbatan yetakchilik qilishi (albatta shartli tarzda qabul qilingan 5 xil motivatsiya yo'nalishi bo'yicha taqqoslab olganda) ulardagi o'ziga xos individual – psixologik xususiyatlar bilan bevosita bog'liq ekanligini yana bir

bor namoyon qildi. Qolaversa, bu o‘rinda har bir shaxsning o‘ziga xos muammosi, qiziqishlari, ichki his-tuyg‘ularini ham unutmaslik kerak bo‘ladi. Eng quyi natija har ikkala guruhda ham “hamkorlik”, “kelishuv” “moslashuv” omillarida qayd etildi.

Deviant xulq-atvorli o‘smirlardan olingan qo‘shimcha ma‘lumotlar ham ushbu ko‘rsatkichni tasdiqlamoqda. Binobarin, deviant xulq-atvorli o‘smirlarda shaxslararo munosabatlar bilan bog‘liq ziddiyatli holatga duch kelganlarida aksariyat holatda “moslashuvchanlik” motivatsiyadan qochishga harakat qilar ekanlar. Shuningdek, ular aksariyat holatlarda “moslashishga” emas “baxs-munozaraga” moyil bo‘layotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz. Albatta, psixologik korreksiya jarayonida mazkur holatlarni inobatga olishi shart va zarur bo‘ladi. Keltirilgan jadvallar interpretatsiyasiga asoslanib shuni ta‘kidlash joizki, mazkur test yordamida ziddiyatli xolatdan chiqish motivatsiyasi ko‘rsatkichlarining xar bir axoli guruhiga xos dinamik xususiyatlar mavjud ekanligini kuzatish mumkin.

Shaxsni ijtimoiy munosabatlarda o‘zining ma‘lum bir o‘rnini topa olmasligi, jamiyat qonun-qoidalariga moslasha olmaslik darajalari qaysidir ma‘noda ulardagi negativ hissiyotlarni keltirib chiqaradi. Bu esa ko‘pincha o‘smir yoshidag shaxslarda ko‘pincha salbiy holatlar bilan tugashi mumkin. Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik metodikasi asosida ko‘rib chiqilayotgan parametrlar ham o‘smirdagi dezadaptatsiya darajasini, hamda uning “men timsoli” xususiyatlarini baholashga imkon beradi. Bu ko‘rsatkichlarning mos kelish darajasini aniqlash uchun korrelyatsion tahlil o‘tkazildi (6- jadval).

6-jadval.

**Ijtimoiy psixologik moslashuvchanlik metodikasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahlili
(n=620)**

Ko‘rsatkichlar	Adaptatsiya	O‘zini qabul qilish	Boshqalarniqabul qilish	Emotsionaldiskomfort	Nazorat	Hukmronlik
N	620	620	620	620	620	620
M	78,80	26,30	15,95	19,70	33,75	8,20
Standart og‘ish	9,40	6,69	3,22	4,13	5,83	1,67
Pozitiv	0,11	0,11	0,07	0,12	0,09	0,16
Negativ	-0,08	-0,10	-0,10	-0,07	-0,06	-0,09
Kolmogorov-Smirnov	0,52	0,52	0,47	0,56	0,40	0,73

Deviant xulq-atvorli o‘smirlardagi sotsial adaptatsiya, ya‘ni, moslashuvchanlikni keltirib chiqaruvchi psixologik omillar bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarning sotsial adaptatsiyani aniqlash so‘rovnomasining umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichlari birinchi shkala bo‘yicha, ya‘ni, adaptatsiya mulohazasi o‘quvchilarda 78,80 natijani qayd etgani va bu standart me‘yor bo‘yicha o‘rtacha miqdorda ekanligini ifodalaydi. O‘zini qabul qilish shkalasiga ko‘ra, o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvchanlik darajalari 26,30 nisbatni tashkil qilgan. Bu shkala bo‘yicha o‘smirlarning olingan natijalari so‘rovnoma me‘yoriy ko‘rsatkichiga ko‘ra, o‘rtacha natijani ko‘rsatgan. O‘quvchilarda o‘zini qabul qilish shkalasi bo‘yicha o‘rtacha natijani namoyon qilganligi, ularda boshqalar bilan birgalikda o‘zlarini ham tushunishlari bilan izohlanadi. Uchinchi shkala ya‘ni boshqalarni qabul qilish bo‘yicha olingan natijalar 15,95 ni tashkil etgan. Bu esa, o‘quvchilarda o‘zlarini bilan birgalikda atrofdagi insonlarni ham tushuna olish imkoniyatiga ega ekanligi bilan belgilanadi. To‘rtinchi shkala emotsional diskomfort shkalasiga ko‘ra, o‘quvchilarning natijalari 19,70 natijani tashkil qilganligi va bu standart me‘yor bo‘yicha o‘rtachaga yaqin miqdorni tashkil qilishini anglatadi. Beshinchi shkala nazorat bo‘yicha 33,75 qiymatni tashkil qilganligi, o‘zini boshqara olishi, nazorat va tartibli xulq-atvorni amalga oshirishi bilan belgilanadi. Oxirgi shkala hukmronlik bo‘yicha natijalar 8,20 o‘rtacha ko‘rsatkichni tashkil qilganligi va boshqalar bilan munosabatlarni o‘rnata olishda avtoritar hokimiyatga moyilligi bilan ajralib turadi. O‘quvchilardan olingan natijalar sotsial adaptatsiyani aniqlash so‘rovnomasi bo‘yicha umumiy o‘rtacha miqdor o‘rtacha ekanligini ko‘rsatdi.

7-jadval.

Ijtimoiy psixologik moslashuvchanlik metodikasi bo'yicha olingan natijalarning korrelyatsion aloqadorlik ko'rsatkichlari (n=620)

Mezonlar	Moslashuvchanlik	O'zini o'zi qabul qilish	Boshqalarni qabul qilish	Emotsional komfort	Internallik	Ustunlikka intilish
Moslashuvchanlik	1	0,688*	0,509*	0,648**	0,640**	0,526**
O'zini o'zi qabul qilish	0,688**	1	0,198	0,738**	0,617*	0,558**
Boshqalarni qabul qilish	0,509*	0,198	1	0,608*	0,037	-0,053
Emotsional komfort	0,648**	0,618*	0,608**	1	0,629	-0,029
Internallik	0,640*	0,513	0,037	0,629	1	0,253
Ustunlikka intilish	0,526*	0,558*	0,053	0,029	0,253	1

p<0,005;* p<0,001**

Demak, muayyan umumiy tahlil natijalariga ko'ra tadqiqot obyekti sifatida empirik jihatdan o'rganilgan o'smirlarda moslashuvchanlik mezonining «o'zini o'zi qabul qilish» (0,688), «emotsional komfortlik» (0,648) «internallik» mezonlari (0,640) o'rtasida yuqori korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi aniqlandi. Biroq, «boshqalarni qabul qilish» mezonining esa «ustunlikka intilish» (0,053), «internallik» (0,037), «o'zini-o'zi qabul qilish» (0,198) mezonlari o'rtasida korrelyatsion aloqadorlikning bir muncha zaifroq ekanligi ma'lum bo'ldi.

Yuqori korrelyatsion bog'lanish, shuningdek, «o'zini qabul qilish» mezoniga nisbatan «emotsional komfortlik» (0,738), «internallik» (0,617) va ustunlikka intilish (0,558) kabi mezonlar o'rtasida ham kuzatildi. Ayni paytda eng zaif korrelyatsion ko'rsatkichlar miqdori «Boshqalarni qabul qilish va ustunlikka intilish» (-0,053), «emotsional komfort va ustunlikka intilish» mezonlari o'rtasida namoyon etildi. Buning asosiy sababi deviant xulq-atvorli o'smirlarda «boshqalarni qabul qilish» ko'rsatkichlarining ortishi ulardagi emotsionallik va ustunlikka intilishning kamayishi hisobiga ro'y berishi bilan bog'liqligi tasdiqlandi (7-jadval).

8-jadval.

Bass va A.Darkining “Tajovuz holati tashxisi metodikasi” bo'yicha umumiy o'rtacha ko'rsatkichlar (Kolmogorov-Smirnovning z- mezonini bo'yicha) (N=620)

Ko'rsatkichlar	Jismoniytajovuz	Verbal tajovuz	Bilvositatajovuz	Negativizm	Tajanglik	Shubhalanuvchanlik	Xafagarchilik	Aybdorlik
N	620	620	620	620	620	620	620	620
M	3,50	6	3,50	1,55	3,50	3,05	2,75	2,80
Standart og'ish	1,19	1,55	1,10	0,94	1,46	1,39	1,20	1,28
Pozitiv	0,16	0,20	0,22	0,17	0,13	0,16	0,18	0,18
Negativ	-0,16	-0,16	-0,16	-0,23	-0,14	-0,13	-0,16	-0,16
Kolmogorov-Smirnov	0,72	0,89	1	1,04	0,65	0,73	0,81	0,82

Deviant xulq-avorli o'smirlarda suitsidial holatlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida tajovuz holatidan olingan natijalar birinchi shkala bo'yicha jismoniy tajovuz 3,50 qiymatdagi darajani ko'rsatgan. Bu natija shu narsani anglatadiki, o'smirlarning deyarli hammasi hozirgi davrda jismoniy

zo‘ravonlik bilan bog‘liq munosabatlarni xisobga olganligi bilan alohida xarakterlanadi. Shu jihatdan o‘smirlarning hammasida jismoniy tajovuz o‘rtachadan past ekanligini aks ettirgan. Bu shkaladan ko‘rinadiki, o‘smirlarda jismoniy hatti-xarakatlar bilan bog‘liq og‘ishlar ma‘lum darajada quyi roq shakllangan. Ikkinchi shkala ya‘ni verbal tajovuz bo‘yicha natijalar 6 darajani tashkil qilgan. Bu nisbat esa, o‘smirlarda nizoli vaziyatlarni hal qilishda verbal tajovuzlarning past darajada shakllanganligidan dalolat beradi. O‘smirlarda verbal agressiya quyi darajada ekanligidan darak beradi. Keyingi shkala bilvosita tajovuz bo‘yicha olingan natijalar standart me‘yorga ko‘ra, 3,50 darajani qayd etgan. Bu natija o‘smirlarda bilvosita tajovuz xavfi o‘rtachadan pastroq ekanligini ko‘rsatgan. Tadqiqot ob‘ekti sifatida tanlangan o‘smirlar bilvosita tajovuzga ko‘ra, boshqalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri nizoli vaziyatlarga borish ehtimoli pastroq ekanligini tashkil qilgan. To‘rtinchi shkala negativizm bo‘yicha o‘smirlarning to‘plagan natijalari 1,55 ni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkichda ham standart me‘yorga ko‘ra, o‘smirlarning miqdoriy ko‘rsatkichlari eng quyi darajani namoyon qilgan. Ya‘ni, o‘smirlar atrofdegilar bilan munosabat o‘rnata olishida ularning fikr-mulohazalarini inobatga olishidan dalolat beradi. Keyingi shkala tajanglik bo‘yicha 3,50 qiymatni tashkil qilganligi va biror-bir noxushlikni ijobiy darajada qabul qilishi bilan belgilanadi. Navbatdagi shkala shubhalanuvchanlik 3,05 nisbatga ko‘ra, o‘smirlarda turli hil axborotlarni qabul qilishda ularga shubha bilan qaramasligi past darajada ekanligini anglatadi. Xafagarchilik shkalasi bo‘yicha o‘smirlarning olgan qiymatlari 2,75 ni tashkil qilganligi va bu o‘zgaralar bilan shaxslararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda tez ranjib qolmasliklaridan dalolat beradi. Oxirgi shkala aybdorlik hissiga ko‘ra, o‘quvchilarda birorta ishni noto‘g‘ri bajargan holda ham aybdorlik hissi 2,80 juda quyi darajada ekanligi bilan belgilanadi (8-jadval).

9-jadval.

Sub‘ektiv nazorat lokusi metodikasi omillari bo‘yicha o‘smirlardan olingan umumiy natijalar (n=620)

№	Ko‘rsatkichlar	Ui	Mi	Oi	Yai	Oi	Shi	Si
1.	Omillar soni	44	12	12	10	8	4	4
2.	O‘rtacha qiymat	26,3	7,2	5,9	5,1	4,8	2,5	2,5
3.	Foizda	60	62,5	49,1	51	60	62,5	60

Ui-Umumiy internallik

Mi - Muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan internallik

Oi - Omadsizliklar sohasidagi internallik

Yai-Yangi narsa va hodisalarga bo‘lgan internallik

Oi-Oilaviy munosabatlardagi internallik

Shi-Shaxslararo munosabatlardagi internallik

Si-Sog‘liq va kasallik bo‘yicha internallik

Natijalar tahlil qiladigan bo‘lsak, eng yuqori natija (62,5%) shaxslararo munosabatlar hamda muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan internallikda kuzatildi. Bu o‘smirlarning nisbatan muloqotda va muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan kompetensiya ko‘rsatkichlarini namoyon etishi mumkin.

Eng quyi natija (51% i 49%) omadsizliklar sohasidagi internallik va yangi narsa va hodisalarga bo‘lgan internallikda ekanligi qayd etildi (9-jadval).

O‘z-o‘ziga munosabat so‘rovnomasi testining natijalari bo‘yicha barcha o‘rtacha ko‘rsatkichlar 50% dan yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa o‘smirlarning o‘z-o‘ziga munosabat omillari ijobiy eanligini ko‘rishimiz mumkin.

Eng yuqori natija III shkalasida 80,7% ni tashkil etdi. Bu esa o‘smirlik davrida yuz beradigan krizislarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Chunki o‘smirlik davrida emotsional holatning yuqori bo‘lishi ularda boshqa insonlardan ijobiy munosabatlarni kutish tendensiyasini namoyon etadi.

Eng quyi natija 61,2% ni, ya‘ni II shkalada kuzatildi. Bu esa o‘smirlarning tarbiyaviy jarayonlarida ijobiy yoki salbiy o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘zini ayblash tendensiyasi nisbatan pastroq ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Endi mazkur metodika shkalalari bo‘yicha olingan natijalarning gender farqlarini ko‘rib chiqamiz.

**Subyektiv nazorat lokusi metodikasi omillari bo‘yicha o‘smirlardan
olingan natijalarning gender tahlili (n=620)**

Ko‘rsatkichlar	Qizlar	Yigitlar
	% hisobida	
Internal	41,1	68,7
Eksternal	17,6	18,7
Aniqlanmagan tip	35,2	18,7
O‘z-o‘ziga yuqori baho	58,8	75
O‘z-o‘ziga quyi baho	41,1	25
Hayotdan qoniqish indeksi (yuqori)	70,5	81,2
Hayotdan qoniqish indeksi (quyi)	29,4	18,7

Xulosa. Mazkur omillar bo‘yicha olingan statistik natijalarning gender tahliliga o‘tadigan bo‘lsak, internallik omilida eng yuqori farq kuzatildi. Yigitlarda qizlarga nisbatan ichki lokus nazorat kuchliroq ekanligi qayd etildi. Buni esa yigitlarda o‘z hayotlari uchun qizlarga qaraganda ko‘proq mas’uliyatni his qilishlari hamda o‘z hayotida bo‘layotgan yututqlar hamda muvaffaqiyatsizliklarga ko‘proq o‘zlarini sabachi deb bilishadi. Qizlarda esa mazkur holat aksincha, ko‘proq boshqalarni ayblash tendensiyasi ustunlik qiladi.

Adabiyotlar:

1. Кон. И.С Особенности саморазрушающего поведения при различных типах акцентуации характера у подростков // Саморазрушающее поведение у подростков. - Л., 1991. – С. 9-14.
2. Adler A. Suicide. // J. Individ. Psychol. 1958. № 14 – P.57-62.
3. Daffi. E Child care and the growth of love // Abridged and edited by Frym. –London and Tonbrige, 2019. – P. 104-130.
4. Bandura A. Social learning theory of identificatory processes // Handbook of socialization theory and research / Ed. by D.A. Coslin. Chicago, 1969. P. 159.
5. Берлайн. Д Основы превентивной психологии. М.: Редакционно- издательский центр консорциума «Социальное здоровье России», 1993.– 199 с.
6. Рубинштейн. Л.С. Проблемы общей психологии. - М.; 1973. - 424 с.
7. Фрейд З. Мы и смерть // Рязанцев С. Танатология (учение о смерти). СПб.: Восточно-Европейский институт психоанализа, 1994. – С. 5-42.; Freud S. Mourning and melancholia // Hogarth Press, London – 1957.
8. Elov Z.S. O‘smirlarda suitsidga moyillikni korreksiyalashning psixologik mexanizmlari. Avtoreferat 2023 y.

	Изучение положения директоров общеобразовательных школ в спорных ситуациях	
	Study of the situation of principals of universal education schools in dispute situations	
18	<i>Tirkasheva Mavluda Akram qizi</i>	94
	Oilaviy muammolar yechimining psixologik xususiyatlari	
	Психологические особенности решения семейных проблем	
	Psychological characteristics of solving family problems	
19	<i>Muxtorov Erkin Mustafoyevich, Zaripova Zarina Eshpo‘atovna</i>	99
	O‘smirlarda psixologik muhofaza haqidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	
	Социально-психологические особенности формирования представлений о психологической защите у подростков	
	Social-psychological characteristics of the formation of ideas about psychological protection in adolescents	
20	<i>Rahimov Abdulatifu Abdimuradovich</i>	105
	Ўсмир боксчиларда муваффақиятга эришиш мотивларини шакллантиришнинг психологик хусусиятлари	
	Психологические особенности формирования мотивов достижения успеха у боксёров-подростков	
	Psychological characteristics of the formation of success motives in teenage boxers	
21	<i>Xudoyqulova Gulshoda Baxronovna</i>	109
	Guruhlardagi psixologik muhitni o‘rganishning ijtimoiy-psixologik ahamiyati	
	Социально-психологическое значение изучения психологической среды в группах	
	Social-psychological significance of studying the psychological environment in groups	
22	<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	116
	O‘smirlar orasida suitsidga moyillikni aniqlash va korreksiyalshning psixologik asoslari	
	Психологические основы определения и коррекции суицидальных тенденций у подростков	
	Psychological basis of determining and correcting suicidal tendencies among adolescents	
23	<i>Eshmuradov Olmosbek Elamanovich</i>	126
	Zamonaviy davrda jamiyatning shakllanishida oilaning ijtimoiy institut sifatidagi roli	
	Роль семьи как социального института в формировании общества в современный период	
	The role of the family as a social institution in the formation of society in the modern period	
24	<i>Fozilova Sabohat Nodir qizi</i>	132
	Kichik maktab yoshida ekologik ong shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	
	Социально-психологические особенности формирования экологического сознания в младшем школьном возрасте	
	Social-psychological characteristics of the formation of environmental consciousness at the primary school age	
25	<i>Olimova Firusa Aslonovna</i>	137
	Stressli holatlarga psixologik barqarorlikni shakllantirishining ijtimoiy-psixologik omillari	
	Социально-психологические факторы формирования психологической устойчивости к стрессовым ситуациям	
	Socio-psychological factors of the formation of psychological stability to stressful	

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK
Rayosatining 2013-yil 26-dekabrdagi
201/3-sonli qarori bilan psixologiya
fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari
ilmiy natijalari yuzasidan ilmiy
maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan
ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.*

